

Gyote hikmatlaridan

<https://pda.uzkiyosanoat.uz/oz/manaviyat/kun-hikmati/gyote-hikmatlari>

Gyote hikmatlaridan

O'g'rilar orasida eng zararlisi ahmoqlardir. Ular bir vaqtning o'zida vaqtimizni va kayfiyatimizni o'g'irlyadi.

Modomiki, donolarcha javob berishlarini xohlar ekansan – donolarcha savol ber.

Kimki o'zga tillarni bilmas ekan, o'z tili haqida ham tasavvurga ega bo'lmaydi.

Pulni yo'qotish – katta yo'qotish emas. Yana pul ishlashga shoshil. Or-nomusni yo'qotish – katta yo'qotish. Shon-shuhrat qozonsang, odamlar o'z fikrini o'zgartiradi. Mardlikni yo'qotish – barcha narsani yo'qotish. U holda bu dunyoga kelmaganing yaxshiroq bo'lar edi.

Eng kulgili istak – barchaga yoqish istagi.

Kumush Abdusalamova tayyorladi